

2-TOM, 5 - SON
HAQ EVAZIGA XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI

Melikov Asilbek Ahmadjon o'g'li

Termiz davlat Universiteti yuridik fakulteti 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbari: Allayorova Muattar

Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi
kafedrasi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola haq evaziga xizmat ko'rsatish, yo'lovchi, bagaj va yuk tashish shartnomalar tushunchasi, shartnoma taraflarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi, shu shartnomalar bo'yicha muammoli vaziyatlarning yechimlari haqida bo'lib fuqarolarning ushbu shartnomalardan to'g'ri foydalanish madaniyatini oshirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi, shartnoma, bitim, fuqarolik, ikki tomonlama

Haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi bo'yicha ijrochi buyurtmachining topshirig'i bilan ashyoviy shaklda bo'lmagan xizmatni bajarish (muayyan harakatlarni qilish yoki muayyan faoliyatni amalga oshirish), buyurtmachi esa bu xizmat uchun haq to'lash majburiyatini oladi. Ushbu moddadan kelib chiqib haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi ijrochiga muayyan xizmatni bajarish majburiyatini, buyurtmachiga ega ushbu xizmatni bajargani uchun ijrochiga kelishilgan miqdorda haq to'lash majburiyatini yuklaydi¹. Shuningdek shartnoma ijrochiga o'z majburiyatlarini shartnomada kelishilgan muddatda, shartnomada boshqa ko'rsatmalar bo'lmasa shaxsan bajarishni agar muddat belgilanmagan bo'lsa oqilona muddatda bajarish majburiyatini yuklaydi. Buyurtmachiga esa o'ziga ko'rsatilgan xizmatlar haqini shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda va tartibda to'lash majburiyatini yuklaydi. Ijrochi o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra xizmatni bajara olmagan taqdirda buyurtmachidan o'z xarajatlarini qoplashni talab qilish huquqiga ega, ammo bunda ijrochi xizmatni bajarishi evaziga oladigan foyda chegirib qolinadi. Agar ijrochi buyurtmachining aybi bilan o'z majburiyatini bajarolmasa buyurtmachidan xizmatlar haqini to'liq to'lashni yani oladigan foydasi chegirib qolinmagan holda to'lashni talab qilish huquqiga ega. Buyurtmachi esa ijrochi shartnoma shartlarini umuman yoki lozim darajada bajarmagan holatlarda keltirilgan zararning ijrochi tomonidan butunlay qoplanishini talab qilish huquqiga ega bo'ladi ammo bu to'lov xizmatlarga to'planadigan haqning ikki barobaridan oshib ketmasligi kerak.

Yo'lovchi, bagaj va yuk tashish shartnomalariga to'xtaladigan bo'lsak, yo'lovchi tashish shartnomasi bo'yicha tachuvchi yo'lovchini, yo'lovchi bagaj topshirgan bo'lsa - bagajni



2-TOM, 5 - SON

ham belgilangan manzilga eltib berish hamda bagajni olishga vakolat berilgan shaxsga topshirish majburiyatini oladi. Yo'lovchi tashish shartnomasi haqida shuni bilib qo'yish foydaliki, yo'lovchi tegishli transport ustavi yoki kodeksida nazarda tutilgan tartibda o'zi bilan birga bolalarni bepul yoki boshqa imtiyoz(misol uchun yo'l kamroq haqi to'lash) bilan olib yurish, belgilangan miqdorda o'zi bilan bagaj olib yurish, belgilangan miqdorda bepul, miqdordan ortiqchasi uchun esa tarif bo'yicha haq tolab tashish uchun bagaj topshirish huquqiga ega. Bu huquqlardan kundalik foydalanadigan taksilarda ham fiydanish mumkin ya'ni taksidan fiydalanganda ota-onalar faqat o'zlari uchun tolovni amalga oshirib bolalarini tekinga olib yurishlari mumkin bo'ladi,shuningdek yuklarini ham tekinga olib yurishlari mumkin bu ayniqsa uzoq masofalarga ketayotganda qo'l keladi.

Yo'lovchi tashish shartnomasiga to'xtaladigan bo'lsak kundalik hayotda ko'p uchraydigan taksi buyurtma qilish ham shunday shartnoma turiga kiradi. Taksining chaqirilgan muddatdan kechikib kelish holati ko'p uchrab turadi. Bunday vaziyatda tashuvchi yani taksi shahar va shahar atrofidagi yo'nalishlardan boshqa yo'nalishlarda kechikib kelsa, agar kechikishiga yengib bo'lmas to'siq (fors major holatlar(suv toshqini, ko'chki va hk)) sabab bo'lmagan bo'lsa, yo'lovchiga kechikkani uchun neustoyka va kechikish sababli keltirilgan zararni tolab berishi kerak. Agar kechikish sababli yo'lovchi tashish shartnomasini (ya'ni taksini) bekor qilsa,tashuvchi yo'lovchiga kira haqini va u qilgan boshqa xarajatlarni (masalan bir bekatdan boshqa bekatga kelgan bolsa shu xarajatni) qaytarishi shart. Bu qoidalarni bilish kundalik hayotda judayam foydali bo'ladi.

Yuk tashishda yukning yoqolishi yoki shikastlanishi yoxud kam chiqishi holatlari ham uchrab turadi. Agar yuk tashuvchi o'zining aybsiz ekanini isbotlab bera olsa javobgarlikdan ozod etiladi. Agarda yuk tashuvchi o'zining aybsizligini isbotlab bera olmasa yuk yoqolgan yoki kam chiqqan hollarda kam chiqqan yoki yo'qolgan yuk miqdorida, yukka zarar yetkazilgan bo'lsa yetkazilgan zarar miqdorida yuk jo'natuvchiga to'lab berishi kerak. Agar yuk kam chiqishi, yo'qolishi yoki shikastlanishi natijasida yuk jonatuvchu boshqa zarar ham ko'rgan bo'lsa (misol uchun yuk zaralangani uchun yuk jo'natuvchining shu yuk bilan bog'liq biror bir faoliyati to'xtab qolsa) yuk tashuvchidan shu zararni ham qoplashni talab qilish huquqiga ega bo'ladi. Bunda yuk jo'natuvchi yuk tashuvchiga nisbatan tegishli tegishli transport ustavi yoki kodeksida belgilangan tartibda talab qo'yishga majburiydir. Yuk tashuvchi bu talabga o'ttiz kun ichida javob bermasa yuk tashuvchiga nisbatan xo'jalik sudiga murojaat qilish mumkin bo'ladi. Yuk tashish bo'yicha kelib chiqadigan talablar bo'yicha da'vo



2-TOM, 5 - SON

qo'zg'atish muddati O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 154-moddasiga muvofiq belgilangan paytdan boshlab bir yil qilib belgilanadi. Buni quyidagi muammoli vaziyat orqali yaxshiroq tushunib olishimiz mumkin:

Muammoli vaziyat:2014-yilning 10-mart kuni YaTT Tursunov keyingi o'rinlardan - sotib oluvchi bilan "Jasmin" MCHJ keyingi o'rinlarda sotib oluvchi o'rtasida jami qiymati 850 mln so'm miqdoridagi "parfyumeriya mahsulotlarini" sotib olish to'g'risida 45-sonli oldi-sotdi shartnomasi tuzilgan. Shartnomaning 4.1-bandiga ko'ra, jami qiymati 850 mln so'm miqdoridagi "parfyumeriya mahsulotlarini" sotib oluvchiga yetkazib berishini ta'minlash maqsadida 2014-yilning 11-mart kuni "Trans servis" MCHJ keyingi o'rinlarda - yuk tashuvchi bilan yuk tashish shartnomasini tuzgan. Yuk jo'natuvchi yukni belgilangan tartibda yuk tashuvchiga topshirgan. Yuk tashuvchi yukni sotib oluvchining manziliga olib borayotgan vaqtida yo'l-transport hodisasi ro'y bergan va yuk yaroqsiz holga kelgan. Yuqoridagi holat yuzasidan sotib oluvchi xo'jalik sudiga murojaat etib, javobgar "Jasmin" MCHJ va "Trans servis" MCHJ lardan yetkazilgan zarar va boy berilgan foydani undirib berishni so'ragan. ⁱⁱKeltirilgan vaziyatda Fuqarolik Kodeksining 721-moddasiga ko'ra "Jasmin" MCHJ va "Trans servis" MCHJlar solidar tartibda javobgar bo'ladilar. Agar "Trans servis" MCHJ ro'y bergan transport hodisasida o'zining aybi yo'qligini isbotlab bersa "Jasmin" MCHJ va "Trans servis" MCHJlar javobgarlikdan ozod etiladi, agarda isbotlab bera olmasa taraflar YaTT Tursunov talab qilgandek yetkazilgan zarar va boy berilgan foydani to'lashlari shart bo'lar edi. Ushbu o'rinda aytib o'tish kerakki agar yuk tashuvchi isbotlab bera olmasa yuk tashuvchi yuk jo'natuvchi oldida javobgar bo'ladi. Xulosa qilib aytadigan aytadigan bo'lsak, haq evaziga xizmat ko'rsatish, yo'lovchi, bagaj va yuk tashish shartnomalari real hayotda ko'p uchraydigan shartnomalar turiga kiradi. Fuqarolarning shu shartnomalar bo'yicha ega bo'ladigan huquq va majburiyatlarini bilishlari faqatgina foyda keltiradi. Ushbu maqola shu ma'lumotlarni fuqarolarga sharxlov tilida tushuntirib bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fuqarolik kodeksi
2. Lex.uz
3. Norma.uz
4. Fuqarolik protsessual kodeksi
5. Fuqarolik huquqi darslik

1.O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 703- modda.2022.349 bet

ⁱⁱ TDYU nashriyoti „Fuqarolik huquqi“ darslik. 2-qism. 219-bet.

